



Methods for translating into English phraseological units with numerical components used in the work “A naughty boy”

Makhbuba MARDIEVA¹

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2023

Received in revised form

10 December 2023

Accepted 25 January 2024

Available online

25 February 2024

Keywords:

phraseological units,
numerical component,
linguistic analysis,
emotionally impactful
coloring words.

ABSTRACT

This article analyzes the role of phraseological units (idioms) in the semantic and linguocultural aspects of the analysis of literary texts. A lexical and linguistic analysis of phraseological units with a numerical component is carried out using the example of Gafur Gulam’s story “A naughty boy”. The article demonstrates how idioms contribute to the expressiveness of a literary text and offers an in-depth understanding of the contribution of idioms to literary analysis

2181-3663/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss1-pp130-133>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

“Shum bola” asarida qo’llanilgan son komponentli frazeologizmlarni ingliz tiliga tarjima qilish usullari

ANNOTATSIYA

Kalit so’zlar:

frazelogik birliklar,
son komponentli iboralar,
lingvomadaniy tahlil,
hissiy ta’siriy bo’yoqdor
so’zlar,
tarjima usullari.

Ushbu maqolada frazeologik birliklarning badiiy matnlarni semantik hamda lingvomadaniy tahlil qilishdagi ahamiyati o’rganiladi. Shuningdek, G’afur G’ulomning “Shum bola” qissasidagi son komponentli frazeologik birliklarning semantik tahlili amalga oshirilgan va ularni ingliz tiliga tarjima qilish usullari bayon etilgan.

¹ Lecturer, Samarkand State Institute of Foreign Languages.

Методы перевода на английский язык фразеологизмов с численными компонентами, используемых в произведении «Шум бола»

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

фразеологизмы,
числовой компонент,
лингвокультурный
анализ,
эмоционально-
аффективная окраска
слов.

В данной статье анализируется роль фразеологизмов (идиом) в семантическом и лингвокультурологическом аспектах анализа художественных текстов. Производится лексический и лингвистический анализ фразеологизмов с числовым компонентом на примере рассказа Гафура Гулама «Шум бола». Статья демонстрирует, как идиомы способствуют повышению выразительности художественного текста, и предлагает углубленное понимание вклада фразеологизмов в литературный анализ.

Badiiy asar tili nihoyatda murakkab va o'ziga xos xarakterga ega ekanligi asar tilini tadqiq qilish ehtiyojini yuzaga keltirdi. Yozuvchi ma'lum bir fikrni yoki voqea-hodisani tasvirlashda turli xil leksik qurilmalardan yoki hissiy-ekspressiv so'zlardan foydalanadi. Bu o'rinda frazeologik birliklar faol qatlamni tashkil etadi. Badiiy til mahorati har qanday adabiy asarning spetsifikatsiyasini belgilaydigan eng asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Badiiy asar tahlilida fonetik, fonologik, morfologik, sintaktik tahlillardan tashqari asar qahramonlari shaxsiyatini ochib berishda iboralarning roli ham ahamiyatlidir. Tilshunoslikning frazeologiya sohasi frazemalarning semantik, struktural-grammatik xususiyatlari bilan bir qatorda funksional-uslubiy imkoniyatlarini ham o'rganadi. Iboralar yirik til birligi bo'lib, tuzilish jihatdan kamida ikkita mustaqil so'z (leksema)dan tarkib topadi, so'zlovchi nutqida tayyor holda sodir bo'ladi, iboraning ma'nosi esa tuzilish jihatdan bir-biriga teng bo'lmaydi, ya'ni nutqda bir so'zga teng ma'no anglatadi.

Frazeologik birliklar badiiy asar tilini boyitadi va insonlarga asarning asosiy mag'zini ochib berishga xizmat qiladi. Shu sababli badiiy asarning tilini boyitish, ta'sirchanligini ochirishda badiiy adabiyotda iboralardan juda keng foydalaniladi.

Misol tariqasida shuni ta'kidlashimiz joizki, G'.G'ulom "Shum bola" asarida iboralardan o'z o'rnida juda keng tarzda foydalangan. Asardagi iboralarning tahliliga nazar soladigan bo'lsak, son komponentli iboralar juda ko'p uchraydi. Masalan: sirlangan xumchaga tushgan sichqonday *to'rt tomonga alanglab*, o'zinga bir najot yo'li qidirar edim (55-bet). Ushbu iborada to'rt tomon deyilganda istalgan tomon, dunyoning to'rt tomoni nazarda tutilmoqda. Ushbu iboraga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha ta'rif berilgan: "Biror narsa yoki joyga nisbatan joy, makon, taraf: u tomon, bu tomon, ko'chaning ikki tomoni, bog'ning u tomoni" [O'TIL, 142-b]. Ibora asarda Qoravoy tomonidan qo'llanilgan bo'lib, oldinga yoki orqaga, ishqilib voqea joyini tark etish vajidan foydalanilgan. Bundan tashqari, asarda to'rt soni bilan bog'liq bir necha iboralarni keltirilgan: *Endi men pok-pokiza, qushday yengil, ko'nglim tongday tiniq. To'rt tomonim qibla*.

Xudo taoloning dargohi keng, to'rt tomonimiz qibla. Keltirilgan ushbu iboralarda *to'rt tomoni qibla* iborasi quyidagi ma'nolarni anglatadi: Aslida qibla so'zi fors tilidan olingan bo'lib, O'TILda uning turli xil ma'nolari izohlangan: 1. Musulmonlar sajda

qiladigan tomon, ya'ni qiblaga qarab ibodat qilmoq, 2. Qayerga ketsang ketaver, ixtiyoring o'zingda, 3. G'arb, kun botish tomon kabi ma'nolarni izohlashi ko'rsatilgan [O'TIL, V, 79].

Ma'lumki, Ka'baning ichida istalgan tomonga qarab ibodat qilish mumkin. Sababi bu yerda to'rtala tomon ham qibla hisoblanadi. Tilimizda qibla so'zi ishtirokida "to'rt tomoning qibla", "beti qibladan qaytsin" iboralari shakllangan. Mazkur ibora tarkibiga kiritilgan "to'rt" so'zi bilan bog'liq tilimizda yana "to'rt ko'z tugal", "to'rt ko'z bo'lib kutmoq", "to'rt muchasi sog'" kabi iboralar qo'llanadi.

Asarda to'rt soni bilan bog'liq quyidagi xalq orasida juda ko'p uchraydigan **"to'rt oyoqlab yugurmoq"** iborasini uchratamiz, ushbu ibora Qoravoy tomonidan quyidagicha qo'llanilgan: *"Zinadan chiqqan itdek to'rt oyoqlab narvonga tirmashib tomga chiqdim"*. Jumlaning mazmunidan shuni anglashimiz mumkinki, asarda Qoravoy Boy otaning ho'kizini o'rniga eshagini so'yib qo'ygan vaqtda boy ota uni quvlaganida u shilganidan to'rt oyoqlab yuguradi. Xalqimiz orasida inson shoshib chopganida to'rt oyoqlab yugurdi degan ibora uchraydi. Ba'zi hollarda aksincha to'rt oyoqlab yurish aks ma'noni anglatadi ya'ni "toshbaqadek sekin yurmoq", imillamoq kabi ma'nolari uchraydi. Asarning inglizcha tarjima variantida ushbu ibora *So I climbed up to the wall and escape through the roof* tarzida tarjima qilingan. Nazariy asoslarga ko'ra, biz ushbu iborani inglizcha ekvivalenti tarzida quyidagi iborani keltirishimiz mumkin. **Cut and run** Ushbu ibora frazeologik struktura jihatdan ekvivalentlari to'liq mos tushmasa-da, lekin ushbu iboraga ma'no jihatdan mos kelganligi uchun ushbu iborani keltirishimiz mumkin.

"Bir gapni ana shunday ziyraklik bilan anglab olsang, xor bo'lmayсан, har

ikki dunyong obod bo'ladi...", deb ko'p maqtadi. Asardan olingan ushbu gapda ikki soni bilan bog'liq **"ikki dunyosi obod bo'lmoq"** iborasi qo'llangan ushbu iboraga O'TILda quyidagicha ta'rif berilgan ikki olam ya'ni u dunyo-bu dunyo, u juda aqlli-da ustozimiz, bunaqa bolani ikki dunyoda ham topolmaysiz [O'TIL,131-b], asarda ushbu gap eshon tomonidan Qoravoyga nisbatan aytilgan. Shuni ta'kidlash joizki, asarda ikki soni bilan bog'liq **"ikki qo'lini burniga tiqib"** iborasi quyidagi holatda qo'llanilgan. *Quruqdan-quruq sho'ppayib shaharga tushib ketaveramizmi, ko'rgan-bilgan ne deydi, shuncha vaqt sanqib yurib, ikki barmog'imni burnimga tiqib boramanmi, o'zing o'lguncha nas bosgan, pes deganimcha bor bola ekansan, sen bilan birlashganimdan buyon ishim o'ng'alganini bilmayman. Ikki qo'lini burniga tiqib* iborasi hech narsasiz qolish, ya'ni *quruq qo'l bilan qolmoq* iborasining sinonimi hisoblanadi. Ushbu iboraning izohli lug'atda turli xil ma'nolari keltirilgan 1.Quruq, hech narsasiz qolish 2.quruq, benasiba ya'ni ulushsiz qolish degan ma'nolarni anglatadi. [O'TIL,253-bet]. Ushbu iboraning inglizcha to'g'ridan-to'g'ri varianti bo'lmaganligi tufayli ushbu iboraga ingliz tilidagi "running on empty" iborasini adekvat deb topish mumkin bo'ladi. Asarning tarjima variantida esa ushbu ibora "We'll go to the city without anything, right?" tarzida berilgan.

Tilimizda besh soni bilan bog'liq bir nechta iboralar ham mavjud: besh panjasini og'ziga tiqmoq, besh ketmoq, besh kunlik dunyo kabi. G'afur G'ulom "Shum bola" qissasida son bilan bog'liq bo'lgan bir necha xil iboralarni uchratishimiz mumkin. Masalan, besh battar bo'lmoq iborasi "ilgarigidan ham yomon bo'lmoq, juda yomon bo'lmoq" ma'nosini anglatadi [O'TFL, 2023]. Qissada bu ibora hindi sarrofning holati ifodasini ko'rsatgan: Har galgidek, sho'x-shatir "shum bola" bu yerda yo'q edi. Bu holatimdan Hoji bobo anchagina tashvishga ham tushdi shekilli, hindi bo'lsa, undan **besh battar**. (158-b) Mazkur ibora ingliz tiliga "go bad" tarzida tarjima qilinadi. "Shum bola"

asarining ingliz tiliga tarjima qilingan variantida mazkur gap shunday tarjima qilingan: Mischievous “naughty boy” was absent here. Hoji Grandfather was **worried from** my state and Indian, **more than him**. Mazkur gapda iboraning |“juda ham yomon, undan ham yomon” tarzidagi ma’nosidan foydalanilgan.

“Yetti” soni bilan bog’liq “yetti iqlim” **Yetti iqlim** iborasi qadimgi geograflar tasavvuridagi yerning yetti mintaqasidan har birini anglatadi. Bundan tashqari, tilimizda yetti so’zi bilan bog’liq *yetti olam, yetti pusht* kabi iboralar ham uchraydi. “Shum bola” asariga murojaat qilamiz: *Bu viloyatlardan umidim uzilgan, kimsan Ko’kterak, Eshonbozor, Qoplonbek, Sharobxona kabi shahri azimlarda (ko’p voqealarni ushbu sarguzashtda yozganim yo’q) qilmagan ishim qolmagan, yetti iqlimda nomim yomonlikka yoyilgan, mazkur mamlakat va viloyatlarga qaytishim mumkin emas.* . Ingliz tilida: *I mean, what would I do in cities like Kukterak, Eshonbazaar, Koplonbek, Sharobkhand. I did each job there, and everybody knew me now.* Ko’ringanidek, nomi yetti iqlimga ketgan iborasining ma’nosi “mashhur, taniqli” demakdir. Asarning tarjima variantida bu ibora “meni hamma biladi” tarzida berilgan. Bizningcha, ingliz tilida bu iboraning aynan muqobili bo’lmagani uchun uning ma’nosi tarjimasidan foydalanilgan. “Yetti iqlimga nomi ketmoq” iborasini “make yourself known” tarzida berish ham mumkin.

“Oyog’i olti, qo’li yetti” iborasiga O’TILda shodlikdan o’zini hech qayerga sig’dirolmaydi, g’oyat xursand kabi ma’nolari keltirilgan. Ushbu ibora asarning tarjima variantida quyidagicha tarjima qilingan **I served very well and fast**. Aslida ushbu iborani ingliz tilidagi “As fast as your legs can carry you” iborasi bilan muqobil tarjima qilinsa ham bo’ladi.

Iboralar kishi nutqini bezaydi, boyitadi, fikrni yanada go’zallashtiradi. Tahlilga tortilgan badiiy asarda qo’llangan iboralardan o’zbek tilining naqadar boy til ekanligini namoyon etishda, voqelikni ifodalashda, asar qahramonlarining xarakterini ochib berishda, ichki insoniy kechinmalarini ifodalashda, ularning aytmqochi bo’lgan fikrini kitobxonga oson va tez yetkazib berish maqsadida foydalanilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Abjalova, M. ve Rashidova, U. (2023). Til Korpuslarida Frazemalar Bazasini Yaratish Omillari. Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi / International Journal of Turkic Dialects (TÜRKÜLAD). 7. Cilt, 2. Sayı, 273-278.
2. Ёўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. Ўқув қўлланма. – Самарқанд, 1998.
3. G’afur G’ulom. Shum bola. –Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018.
4. Н. Каримов Ғафур Ғулом. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2003.
5. Т. Матёкубова Ғафур Ғулом бадийати. – Т: Фан ва технология, 2006
6. Sh.Rahmatullayev. O’zbek tilining frazeologik lug’ati. –Toshkent, 1978.
7. O’zbek tilining izohli lug’ati. Qomuslar bosh tahririyati. – Toshkent, 2006.